

huzuridagi Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni ilmiy-metodik ta'minlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish markazi faoliyatini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi 658 - sonli Qarori.

III. Maxsus adabiyotlar


1. Davronov R.R. "Ta'lim jarayonida axborot texnologiyalari". Uslubiy qo'llanma. /O'qituvchilar uchun uslubiy qo'llanma. "LedirPress". 2019, 56 b.
2. Зиядуллаев Д.Ш., Таълим жараёнида замонавий ахборот технологияларидан фойдаланиш. Услубий қўлланма.-Т.: Илимий техника ахбороти-press, 2019.-100 б.
3. Пайзиев А.А., Хайдаров Б.Т., Маткаримов Р.М., Таймурадов А.Р., Зиямухаммедова С.А. Монография.-Т.: "ИТА-ПРЕСС", 2018.-300 с.
4. Рязанова З.Г., Янов В.В. Информационные технологии в физической культуре и спорте. Учебное пособие. 2015 г. 194 стр.
5. Сабирова Д.А. Мультимедийные системы и технологии. Учебное пособие -Т: ТГЕУ, 2012 г. 180 стр.
6. Толаметов А.А. Спорт метрология Ўқув қўлланма.-Т.: Илимий техника ахбороти-press, 2020.-228 б
7. Толаметов А.А., Махаров Т.А., Интерактив топшириқлар, тестлар, кроссвордлар яратишда «Hot Potatoes» дастуридан фойдаланиш", Услубий қўлланма.-Т.: Илимий техника ахбороти-press, 2019.-55 б.
8. Tolametov A.A., Nurmuxamedov A.M., Maxarov T.A. "Microsoft Word matn processor", O'zDJTI, T.: 2008 120 b.
9. Tolametov A.A., Nurmuxamedov A.M., Maxarov T.A., "Axborot texnologiyalari", O'zDJTI, T.: 2008 120 b.
10. Tolametov A.A. MS Office PowerPoint 2010 dasturida ishlash, O'quv uslubiy qo'llanma.-T.: Ilimiy texnika axboroti-press, 2020.- 94 b.
11. Tolametov A.A. Microsoft Excel dasturida ishlash, O'quv uslubiy qo'llanma. O'quv uslubiy qo'llanma.-T.: Ilimiy texnika axboroti-press, 2020.- 63 b
12. Tolametov A.A. Jismoniy tarbiya va sport ta'limida axborot kommunikasiya texnologiyalaridan foydalanish samaradorligini oshirish omillari. // "Jismoniy tarbiya va sport" jurnal № 10, 2019. 8-9 betlar.
13. Sabirova D.A. Multimedia tizimlari va texnologiyalari. O'quv qo'llanma. - T: TDIU, 2014 y., 195 str.
14. Переп Веверка «Microsoft Office 2019 all-in-one», 420 стр.

Elektron ta'lim resurslari

1. <http://edu.uz/>
2. <http://lex.uz/>
3. <http://minsport.uz/ru>
4. <http://sportedu.uz/>
5. <http://olympic.uz/>
6. <http://lib.sportedu.uz/>

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI JISMONIY TARBIYA VA SPORT VAZIRLIGI

JISMONIY TARBIYA VA SPORT BO'YICHA MUTAXASSISLARNI ILMIY- METODIK TA'MINLASH, QAYTA TAYYORLASH VA MALAKASINI OSHIRISH MARKAZI



"Tasdiqlayman"

Markaz direktori

I. Tursunaliyev

" 4 " / 10 / 2021-yil

SPORTDA AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI moduli bo'yicha

ISHCHI O'QUV DASTURI

"Sport turlari bo'yicha trener-o'qituvchi" yo'nalishi bo'yicha sport ta'lim muassasalari pedagog kadrlarini malakasini oshirish kursi uchun

Toshkent – 2021

Modulning ishchi o'quv dasturi 2021-yil 4-yanvarda O'zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport vazirligi tomonidan tasdiqlangan namunaviy o'quv reja va o'quv dasturiga muvofiq ishlab chiqilgan.

Tuzuvchi:


- A.Tolametov - Markazning "Pedagogika va psixologiya" kafedrasida katta o'qituvchisi.
- D.Xalilov - Markazning farg'ona filiyali "Pedagogika va psixologiya" kafedrasida o'qituvchisi.

Taqrizchilar:

- A.Xaydarov - O'zbekiston Milliy Universiteti "Amaliy matematika va komp'yuterli tahlil" kafedrasida, m-f.f.n., dotsent
- R.Davronov - Markazning "Pedagogika va psixologiya" kafedrasida dotsenti.

Ishchi o'quv dasturi "Pedagogika va psixologiya" kafedrasining 2021 yil "4" 01 da o'tkazilgan yig'ilish 1 -sonli bayoni bilan tasdiqqa tavsiya qilingan.

Kafedra mudiri



J.A.Pulatov

umumiy tushunchalar, imkoniyatlari va afzallik tomonlari. On-line ochiq kurslardan foydalanish.

Dasturning axborot-metodik ta'minoti

Modulni o'qitish jarayonida ishlab chiqilgan o'quv-metodik materiallar, tegishli soha bo'yicha ilmiy jurnallar, Internet resurslari, multimediyaga mahsulotlari, turli elektron hamda qog'oz variantdagi manbalardan foydalaniladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: "O'zbekiston". 2017. – 488 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz – T.: "O'zbekiston". 2017. – 592 b.

II. Normativ-huquqiy hujjatlar

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. - T. O'zbekiston, 2017 yil.
2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. 2020 yil 23 sentyabr O'RQ -637-son .
3. O'zbekiston Respublikasining "Ilm-fan va ilmiy faoliyat to'g'risida" Qonuni. 2019 yil 29 oktyabr O'RQ -576-son .
4. O'zbekiston Respublikasining 2015-yil 4-sentyabrdagi "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi O'RQ-394-sonli Qonuni.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 19-fevraldagi "Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PF-5349-sonli Farmoni.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-yanvardagi "O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5924-sonli Farmoni.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-oktyabrdagi "Sog'lom turmush tarzini keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6099-sonli Farmoni.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi 4947-sonli Farmoni.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 3-iyundagi "Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3031-sonli Qarori.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 21-sentyabrdagi "2019-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5544-sonli Farmoni.
11. O'zbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 14-avgustdagi "O'zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport vazirligi

MS Office dasturlari yordamida xujjat, elektron jadval va taqdimot yaratish. Microsoft Word haqida umumiy tushunchalar. Xujjatda matn, jadval va rasmlar bilan ishlash. Zakladkalar va Giperhavolalar. Jadvallar yaratish. Elektron jadvallar bilan ishlash. Formulalar kiritish. Sodda va murakkab formulalar bilan ishlash. Diagrammalar yaratish. Taqdimot yaratish. Slaydlar bilan ishlash. Animatsiyalarni tashkil etish.

3-mavzu. Internet va uning ahamiyati.

Reja:

- 3.1. Elektron pochta va undan foydalanish
- 3.2. Milliy axborot qidiruv tizimi
- 3.3. Davlat axborot resurslari va interaktiv xizmatlari
- 3.4. Tarjimon dasturlar va ulardan foydalanish

Internet tarmog'ining tuzilishi. Internet tarmog'ining eng ommabop xizmatlari. Elektron pochta xizmati va undan foydalanish. O'zbekiston Respublikasi Hukumat portali, ta'lim tizimiga oid internet resurslari. Internetda manbalar bilan ishlash. Avtomatik tarjima va uning sozlovlari. Google translate va tarjimon dasturlaridan foydalanish.

4-mavzu. Kasbiy vazifalarni samarali amalga oshirish uchun zarur bo'lgan axborot-kommunikatsion texnologiyalaridan foydalanish.

Reja:

- 4.1. Kasbiy vazifalarni amalga oshirishda zarur bo'lgan maxsus dasturlardan foydalanish
- 4.2. Kasbiy faoliyatga doir ma'lumotlarni qidirish
- 4.3. Kasbiy faoliyatda tanib olish dasturlari
- 4.4. Axborot xavfsizligini ta'minlashning usul va vositalari

Kasbiy faoliyatda zamonaviy axborot-kommunikatsion texnologiyalardan foydalanish. Kirilldan lotinga, lotindan kirillga o'giruvchi va chop etish uchun avtomatik kitobcha ko'rinishiga sahifalashni tayyorlovchi maxsus mualliflik dasturlari. Adobe FineReader dasturi. Kasbiy vazifalarni bajarishda zarur bo'lgan axborotlarni izlash, saqlash, qayta ishlash va uzatish. Fayllarni arxivlash va ochish turlari, zaruriyati. Axborot xavfsizligi tushunchasi. Axborot xavfsizligining asosiy tashkil etuvchilari. Ma'lumotlarni himoyalash usullari.

5-mavzu. Ziyonet ta'lim portali. Masofaviy ta'lim tizimlari va mobil ilovalar.

Reja:

- 5.1. Ziyonet jamoat axborot ta'lim tarmog'i
- 5.2. Masofali ta'lim to'g'risida umumiy tushunchalar
- 5.3. Mobil ilovalardan kasbiy faoliyatda foydalanish
- 5.4. On-line ochiq kurslardan foydalanish

Ziyonet.uz, fikr.uz va utube.uz da ishlash. Ta'lim portallari. Elektron darsliklarning turlari va ulardan foydalanish usullari. Masofali ta'lim to'g'risida

Modulning maqsadi va vazifalari

Modulning maqsadi: Tinglovchilarni sportda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari hozirgi jamiyatda tutgan o'rni, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining tuzilishi, ishlash printsiplari, arxitekturasini bilimlarini takomillashtirish, axborot texnologiyalarining texnik va dasturiy ta'minotlar bilan tanishtirish, tizimli dasturiy ta'minot, amaliy dasturiy ta'minotlar, internet tarmog'i haqida ko'nikma va malakalarini shakllantirishdan iborat.

Modulning vazifalari:

tinglovchilarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va uning istiqbollarini; axborot texnologiyalarini rivojlantirish va qo'llash to'g'risidagi me'yoriy-huquqiy hujjatlarning mazmun-mohiyati, maqsad va vazifalarini; axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining texnik vositalari, amaliy dasturlar (matn protsessorlari, elektron jadvallar, taqdimot) ning imkoniyatlarini; ta'lim oluvchilar tomonidan sport me'yorlari bajarilishini ta'minlashda axborot texnologiyalaridan foydalanish usullarini; internet va uning asosiy imkoniyatlarini; sport mashg'ulotlari jarayoniga axborot texnologiyalarini joriy qilishning innovatsion usullari kabi bilim, ko'nikma va malakalarini takomillashtirishdan iborat.

Modul bo'yicha tinglovchilarning bilimi, ko'nikmasi, malakasi va kompetentsiyalariga qo'yiladigan talablar.

"Sportda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari" modulini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida:

Tinglovchi:

axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish va qo'llash to'g'risidagi me'yoriy-huquqiy hujjatlardan mehnat faoliyati davomida foydalanishni;

amaliy dasturlar (matn protsessorlari, elektron jadvallar, taqdimot, grafik muharrirlari va h.k.) dan amalda foydalana olishni;

o'quv dasturining alohida mavzulari doirasida talab etiladigan va ta'lim maqsadlariga erishish uchun zarur bo'lgan hamda ta'lim jarayonini baholash haqida *bilishi* kerak.

Tinglovchi:

pedagog faoliyati natijalarini tahlil qilish uchun foydalaniladigan axborot texnologiyalarini;

ularning didaktik funksiyalarini aniqlay olish, ularni tegishli o'quv dasturlariga kirita olish *ko'nikmalariga* ega bo'lishi lozim.

Tinglovchi:

jismoniy tarbiya mashg'ulotlari samaradorligini oshirishda ta'lim oluvchi faolligini va uning natijalarini baholashga yordam beradigan ta'lim resurslari va axborot texnologiyalarini tanlay olish hamda o'quv-me'yoriy hujjatlarda bayon etish;

Internet resurslari, elektron pochta va qidiruv tizimlaridan foydalana olish kabi malakalariga ega bo'lishi zarur.

Tinglovchi:

jismoniy tarbiya yo'nalishidagi ta'lim jarayonining boshqaruvida qo'llaniladigan amaliy dasturlar va elektron ilovalar (jumladan, ta'lim oluvchilarning davomati, turli baholash natijalari bilan bog'liq dasturlar)dan foydalanish hamda tegishli hisobotlarni tayyorlash;

tarmoq texnologiyalari, multimedia vositalaridan pedagogik faoliyatida foydalanish;

malaka oshirish kursida o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalardan kasbiy faoliyatda foydalanish kompetensiyalariga ega bo'lishi lozim.

Modulning o'quv rejadagi boshqa modullar bilan bog'liqligi va uzviyligi

Modul mazmuni o'quv rejadagi "Sport ta'limini tashkil etishning me'yoriy-huquqiy hujjatlari, "Amaliy horijiy tilni o'rganishning intensiv usullari", "Sport ta'limida innovatsion pedagogik texnologiyalar", "Sport ta'lim muassasasida ish yuritish va ijro intizomi", kabi o'quv modullari bilan uzviy bog'langan holda pedagoglarning kasbiy-pedagogik tayyorgarlik darajasini orttirishga xizmat qiladi.

Modulning sport ta'limidagi o'rni

Modulni o'zlashtirish orqali tinglovchilar AKTni jismoniy tarbiya va sportda texnik vosita sifatida mashg'ulot jarayonida qo'llash imkoniyati mavjudligini xamda mashg'ulotda hamkor hisoblanishini, sportchiga yordam ko'rsata olishini shu bilan uni faol bo'lishga rag'batlantirishini, kompyuterning dasturlashuvchanligi va uning moslashuvchanligi mashg'ulot jarayonini individuallashtirishga yordam berishiga doir kasbiy malakaga ega bo'ladilar.

Modul bo'yicha soatlar taqsimoti:

T/r	Modul mavzulari	Tinglovchining o'quv yuklamasi, soatlari					
		Hammasi	Auditoriya o'quv yuklamasi				Mustaqil tayyorgarlik
			Jumladan				
			Jami	Nazariy	Amaliy mashg'ulot	Ko'chma mashg'ulot	
1.	Axborot texnologiyalari tushunchasi	2	2	2			
2.	Amaliy dasturlar paketi bilan ishlash	2	2	2			
3.	Internet va uning ahamiyati	2	2	2			
4.	Kasbiy vazifalarni samarali amalga oshirish uchun zarur bo'lgan axborot texnologiyalaridan foydalanish	2	2	2			
5	ZiyoNet ta'lim portali. Masofaviy ta'lim tizimlari	2	2	2			
	Jami:	10	10	10			

AMALIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

1-mavzu. Axborot texnologiyalari tushunchasi.

Reja:

- 1.1. Axborot texnologiyalari tushunchasi
- 1.2. Jismoniy tarbiya va sport sohasida axborot texnologiyalari
- 1.3. Zamonaviy elektron sport anjomlari

Axborot texnologiyalari asoslari va ishlash printsiplari. Sportchilarning trenirovka jarayoni borishini samarali boshqarishda axborot texnologiyalaridan foydalanish. Zamonaviy elektron sport anjomlari.

2-mavzu. Amaliy dasturlar paketi bilan ishlash.

Reja:

- 2.1. MS Word dasturida xujjat yaratish
- 2.2. MS Excel dasturida elektron jadvalida ishlash
- 2.3. MS Power Point dasturida taqdimot yaratish